

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN NUTQ O'STIRISH VA BOLALAR ADABIYOTI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Nutq o'stirish va bolalar adabiyoti fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Nutq o'stirish va bolalar adabiyoti

1. Bolalar nutqini o'stirishning nazariy asoslari;
2. MTTda bolalarning lug'at ustida ishlash metodikasi;
3. MTT va oilada nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish metodikasi;
4. MTTva oilada bolalar nutqining tovush madaniyatini tarbiyalash metodikasi;
5. MTTda bolalarni bog'lanishli nutqqa o'rgatish metodikasi;
6. MTT va oilada bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish;
7. O'zbek bolalar adabiyoti;
8. Rus bolalar adabiyoti;
9. Jahon bolalar adabiyoti;
10. MTTda bolalarni o'qish va savodga tayyorlash.;
11. MTT va oilada bolalar nutqini rivojlantirish ishlarini tashkillashtirish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Bolalar nutqini o‘stirishning nazariy asoslari	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda ona tilining ahamiyatini, tarbiyachi nutqi bolalar nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun namuna sifatidagi ahamiyati va bilimlar manbai, tarbiya vositasi ekanligini, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha ish vazifalari va mazmuni biladi. Tarbiyachi nutqiga qo‘yilgan pedagogik talablar. Tarbiyachi o‘z nutqini takomillashtirish ustida ishlashning zarurligi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	10 %	4 ta
2	MTTda bolalarning lug‘at ustida ishlash metodikasi	Tevarak-atrof bilan tanishtirishning ahamiyatini, bolalar tomonidan lug‘atni o‘zlashtirish xususiyatlarini, MTT da lug‘at ishining vazifalari va mazmuni Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug‘atni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulot turlari haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak.	10 %	4 ta
3	MTT va oilada nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish metodikasi.	Grammatik termin haqida tushuncha, nutqning grammatik jihatdan shakllantirish vazifalari va mazmunini, bolalar nutqida uchraydigan morfologik va sintaktik xatolarni, bolalar nutqidagi grammatik xatolarni ogohlantirish to‘g‘irlash yo‘llarini, grammatik to‘g‘ri nutqni shakllantirish mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	8 %	3 ta
4	MTTva oilada bolalar nutqining tovush madaniyatini tarbiyalash metodikasi	Suhbat turlari va uning mazmunini, suhbat qismlarini, suhbatga tarbiyachining tayyorlanishi va o‘tkazishi bolalarni hikoya qilib berishga o‘rgatishda foydalaniladigan usullar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	8 %	3 ta
5	MTTda bolalarni bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish metodikasi.	Bog‘lanishli nutqni shakllantirish va uni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda rivojlantirish haqida tushunchalarni, bolalarni dialogik va monologik nutqqa o‘rgatish bo‘yicha ishlarning mazmuni va vazifalarini, bolalarni dialogik va monologik nutqqa o‘rgatish metodlari va usullari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	14 %	6 ta
6	MTT va oilada bolalarni badiiy	Bolalar adabiyoti umum badiiy adabiyotning ajralmas bir qismini, bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari; Bolalarni har tomonlama	17 %	7 ta

	adabiyot bilan tanishtirish.	barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyatini, bolalarni adabiyot bilan tanishtirishda MTTning oldida turgan vazifalarini, badiiy adabiyot bilan tanishtirish metodikasi va o‘qilgan asarni mustahkamlash usullari haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak.		
7	O‘zbek bolalar adabiyoti	Bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlar, she’rlar va ularning mualliflari haqida ma’lumotlarni, (Quddus Muhammadiy, Zafar Diyor, Ergash Raimov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Farhod Musajon) haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak.	5 %	2 ta
8	Rus bolalar adabiyoti	Mashhur rus ertakchisi A.S.Pushkinning bolalar uchun yaratgan ertaklarini ifodali o‘qish va tahlil qilish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	5 %	2 ta
9	Jahon bolalar adabiyoti	“Sharl Perro”, “Qizil shapkacha”, “Zolushka”, “Etik kiygan mushuk” ertaklarini ifodali o‘qish va tahlil qilish haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	8 %	3 ta
10	MTTda bolalarni o‘qish va savodga tayyorlash.	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni MTTda yozish va o‘qishga tayyorlashni, maktab yoshidagi bolalarni yozish va o‘qishga o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodini bilishi	5 %	2 ta
11	MTT va oilada bolalar nutqini rivojlantirish ishlarini tashkillashtirish	“O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”ning, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” va” ijodiy rivojlantirish” soha va kichik sohalarini tahlil qilish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	18 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	62 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori

2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" O'RMTV Toshkent-2020 (802-qaror)

3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi O'RMTV Toshkent-2022

4. Q. Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubi" Toshkent-2009

5. Q.S.Shodieva, "Kichiklarning o'qish va yozishga o'rgatish". Qo'llanma 2002

6. Z.Ibroximova. «Kichkintoylar adabiyotining xususiyati». T. “O‘qituvchi”-1994.
7. Barakaev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va A.Avloniy ijodi. Fan nashriyoti. 2004
9. «O‘zbek xalq maqollari» . “Toshkent”-1989.
10. «Bir bor ekan...».”O‘zbek xalq ertaklari”. T. “Mehnat”- 1995.